



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hamdamova Nigora Eshonqulovna

*Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani
1-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'ZARO BOG'LAB
O'QITISHNING AHAMIYATI**

Annotatsiya: Ushbu muqolada fanlarni o'zaro bog'lab o'qitish, ya'ni integratsion ta'lismi yo'lga qo'yishning ayrim ta'lab va shartlarni yaratilgan bo'lib, darslarda qo'llash bo'yicha takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, integratsiya, fanlararo integratsiya, ta'lim samaradorligi, integratsion darslar.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarni hal olishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. "Integrasiya" so'zi lotincha integration-tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan kelib chiqqan. **Bosh oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi.** U bolalarni matematikaga, yozishga, o'qishga, tabiat hodisalaridan boshlang'ich tushunchalarni anglashga va boshqa ko'pgina narsalarga o'rgatadi. **O'n kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi.** **Bosh sinflarda** bir o'qituvchining dars berishini integratsiyaning bir ko'rinishi deb hisoblasak ham bo'ladi. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rgatish usullarini qo'llashda mohirlik ko'rsatish pedagogning psixologik-pedagogik dunyoqarashiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizim tubdan o'zgarmoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiyalar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. **Bosh sinflarda** fanlararo aloqador ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari



samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy entellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. **O‘quv fanlararo aloqadorikni turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari darsliklar mutanosiblikni taminlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.**

XIX-XX asrlar oralig‘ida jahon pedagogikasida Ya.A.Komenskiy, D.Lok, M.Pestolsti, K.Ushiniskiy qarashlarida ayni ta’lim samaradorligiga fanlararo aloqa vositasida erishishish mumkunligi asoslandi.

Boshlang‘ich ta’limdagi fanlararo va fanga oid tushunchalar aloqadorligiga tayanib ta’lim samaradorligiga erishish yo‘llari, usul va vositalar XX asir oxiriga qadar rossiyalik olimlar N.Drujinina, T.Nazarova, I.Bilinova, R.Matyushova tomonidan keng ko‘lamda tadbiq qilindi.

Bugungi kunda integratsiyalashgan ta’lim muammusiga boshlang‘ich ta’limda ham jiddiy diqqat qaratilayotganligi sababini professorlar R.Mavlonova va N.Rahmanqulova “Boshlang‘ich ta’limning intgratsiyalashgan pedagogikasi” (2009 yil), “Boshlangich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integrasiya” (2013 yil) nomli o‘quv qo‘llanmalarida izohlab o‘tganlar.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning yorqin misoli sifatida 2021-2022 o‘quv yili dasturga kiritilgan darsliklarni misol keltirishimiz mumkin. Joriy 2021-yilda nashr etilgan ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi fanlararo aloqadorlikka asoslangan. Ona tili va o‘qish fanlari yaxlitlangan ushbu kitob o‘quvchini yanada hayot haqida kengroq fikr yuritishga mushohada qilishga undaydi.

Ushbu kitobdagagi “Kun tartibi” mavzusini – tabiiy fan darsi bilan bog‘lab o‘rganish “Yashil sayyora”, “Men tabiatni asrayman”, “Hashorot”, “Asalari qanday boqiladi?”, “Uy hayvonlari” mavzularini har bir darslikda mustahkamlab o‘rgatish mavzuning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Lanka”, “Meshpolvonning o‘yinlari” mavzularini esa jismoniy tarbiya darsi bilan uzviy bog‘langan.

Darsligimizning 2-qismida berilgan “Oy yerdan kattami?” mavzusini “Yer” mavzusi bilan bog‘lab tushuntirish samarali. Chunki tabiiy fanlar darsidagi “Yer” mavzusi faqat amaliy ish, yani rang berish bilan chegaralanib qolgan. Yerning hajmi, sayyoralar **uzmedagi o‘rnி**, yo‘ldoshlari haqida ma’lumotlar berilmagan.

Ona tili va o‘qish darsligida ma’lumotlar berib, tabiiy fanlar darsida esa ushbu ma’lumotlarni mustahkamlab o‘tish maqsadga muvofiq. O‘quvchilar egallagan bilimlarini mustahkamlash asosida Yerning rasmiga mos rang tanlaydilar va bo‘yaydilar. Bu ikkala darsni birlashtirish, yakdillash asnosida tasviriy san’at darsligiga ham murojaat etamiz. Bunda soyaning qanday tushayotganligi va ranglarning uyg‘unligini hisobga olish zarur.

Boshlang‘ich sinflarda asosan bir o‘quuvchi dars berishi darslararo integratsiya uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz, “Matematikani bilmagan – hayotni bilmaydi”, deb bu fanni o‘rganish naqadar dolzarbligini e’tirof etadi. 2021-2022 o‘quv yilida dasturga kiritilgan matematika (Lolaxon O‘rinboyeva, Mamanazar Jumayev, Nigora Ro‘zikulova, Umid Rahmonov, Shuhrat Ismoilov,



Nodira Ismoilova, Nozimaxonim Usmonova) darsligimiz ham boshqa fanlar bilan uzviy aloqada yaratilgan.

Matematika darsligidagi “Hafta kunlari” mavzusini yoritishda ingliz tili darsligiga murojat qilamiz. Hafta kunlarini inglizcha nomini so‘rab, undan so‘ng haftada nechta kun bor? Chorshanbadan oldin va keyin qaysi kunlar keladi? Bugun qaysi kun? Ertaga-chi? kabi savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin.

Geometrik shakllar mavzusida shakllarni farqlash bilan birga ularni rangiga qarab ajratishni ham o‘rganishadi. Matematika darsligidagi “Rasmlarni o‘zar o‘shtirish”, “Qavslar” va “Sonli ifodalar” mavzularini ingliz tilidagi “Fruits and Vegetables” mavzulari bilan bog‘lab o‘rgatish ham ancha qiziqarli bo‘ladi. Bunda masaladagi meva va sabzavotlar soni va nomlari ingliz tilida ham aytib o‘tiladi.

Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta’lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart – sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o‘quvchining vaqtisi, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarning oldi olinadi, ta’lim samaradorligi oshadi. O‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o‘quv predmetlari mazmunini uyg‘unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR RUYXATI:

1. Mavlonova R, Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta’limning inntegratsiyalashgan pedagogikasi . 2009-yil. 49-bet
2. Jo‘rayev, J.S. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. 2021-yil. 11-14-bet
3. Sulaymonov J. Abdurahmon Ibn Xaldunning tamaddun taraqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili. 2021-yil. 451-455-bet
4. Kutlimuratova N.R. Boshlang‘ich sinflarda inntegratsion o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. 2021-yil, iyul
5. Matematika, Ona tili va o‘qish savodxonligi, Tabiiy fanlar, Tasviriy san’at, Tarbiya, Ingliz tili darsliklari. 1-sinf. 2021-yil.